



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON SHAHAR KENGASHI QARORI

2022 - yil 8 - aprel

VI-54-59-7-106-K/22

Kattaqo'rg'on shahar hokimligi

2022-yil 1-yarim yillikda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da shakllangan mablag‘larni jamoatchilik fikri asosida yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 126-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5072-sonli qaroriga asosan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari shahar Kengashining oltinchi chaqiriq, ellik to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5072-sonli qaroriga muvofiq Kattaqo‘rg‘on shahar mahalliy byudjeti mablag‘lari hisobidan shakllangan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larini Nizom talablariga asosan ilovaga muvofiq jamoatchilik fikri asosida yo‘naltirilsin.

2. Shahar hokimligi moliya bo‘limi (F.Sadriddinov), G‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Ruziyev)lar “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan jamoatchilik fikri asosida sohalarga ajratilayotgan mablag‘larni jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish bo‘yicha tegishli soha rahbarlari bilan birgalikda loyiha smetalarni ishlab chiqsin va belgilangan

tartibda moliyalashtirilishini ta'minlasin.

3. Shahar hokimligi moliya bo'limi (F.Sadriddinov), G'aznachilik bo'linmasi (Sh.Ruziyev) va tegishli soha vakillari "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan ajratilgan mablag'larni maqsadli sarflanishi yuzasidan mas'ul ekanligi belgilansin hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari shahar Kengashiga axborot kiritsin.

4. Shahar hokimligi Axborot xizmati, "Kattaqo'rg'on tongi" gazetasi tahririyati (T.Xamidov)ga jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yetkazish tavsiya etilsin.

5. "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da shakllangan mablag'lar qonunchilikda belgilangan tartibda faqat jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilsin va ushbu mablag'larning boshqa maqsadlarga ishlatilishi taqiqlansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (S.Gadayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



G. Alimova

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on shahar Kengashining
2022 yil 8 apreldagi
VI-54-59-7-106-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Kattaqo'rg'on shahri bo'yicha 2022-yil 1-yarim yillikda jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni
moliyalashtirish bo'yicha**

MANZILLI RO'YXAT

T/r	G'olib taklif ma'lumotlari			Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Haqiqatda ajratilishi rejalashtirilayotgan mablag'	Moliyalashtirish manbasi	Buyurtmachi tashkilot
	taklif ID raqami	qisqacha mazmuni	to'plagan ovozlar soni				
	"Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" da shakllangan mablag'				4 131 409 000	x	x
1	1080400044	Shahar kutubxonasining kitob fondini ko'paytirish uchun badiiy, tarixiy, ertaklar, fantastik va h.k yo'nalishlarda mingta kitob olish uchun	683	30 000 000	30 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Axborot kutubxona markazi
2	1080400008	Kattaqo'rg'on shahar Ingichka qo'rg'oni I.Shoir MFY Turkiston ko'chasida joylashgan 21 MTM binosini ta'mirlash	627	300 000 000	300 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Maktabgacha ta'lim bo'limi
3	1080400003	14-maktabga 20 - dona ovozli kamera sotib olish va o'rnatish uchun, ularga ketadigan simlari	541	40 000 000	40 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Xalq ta'limi bo'limi
4	1080400089	Kattaqo'rg'on shahridagi 13-sonli maktabni joriy ta'mirlash	453	297 000 000	297 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Xalq ta'limi bo'limi
5	1080400068	Yermachit mahallasi binosini qayta qurish	356	500 000 000	500 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Shahar hokimligi

6	1080400035	Mehrjon mahallasi O.Miriy ko'chasining 520 metr joyini asfalt qilish	301	352 493 000	352 493 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Obodonlashtirish boshqarmasi
7	1080400021	5-maktabning ta'mirlanayotgan faollar zali, kutubxonasini joriy ta'mirlanishini yakuniga yetkazish	289	300 000 000	300 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Xalq ta'limi bo'limi
8	1080400025	Kattaqo'rg'on shahridagi 17-sonli Ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lim maktabining tom qismini joriy ta'mirlash	259	60 000 000	60 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Xalq ta'limi bo'limi
9	1080400026	Yermachit mahallasining Binokor o'tar ko'chasining 314 metr joyini asfaltlashtirish	222	256 000 000	256 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Obodonlashtirish boshqarmasi
10	1080400012	Kattaqo'rg'on shahar 4-maktabgacha ta'lim tashkilotining qo'shimcha binolarini joriy ta'mirlash	222	100 000 000	100 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Maktabgacha ta'lim bo'limi
11	1080400067	Kattaqo'rg'on shahar tibbiyot birlashmasi kuz kasalliklar bo'limiga tibbiy anjomlar xarid qilish	179	250 000 000	250 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tibbiyot birlashmasi
12	1080400169	22-MTT binosini joriy ta'mirlash	109	30 000 000	30 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Maktabgacha ta'lim bo'limi
13	1080400038	Chinobod MFYdagi ichimlik suvi 2 km.lik tarmog'ini ta'mirlash	107	300 000 000	300 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Shahar hokimligi
14	1080400036	Zarafshon mahallasi Qoradaryo o'tar ko'chasi 128 metr joyini asfaltlashtirish	107	62 513 000	62 513 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Obodonlashtirish boshqarmasi
15	1080400040	Damariq mahallasi xolis ko'chasining 105 metr joyini asfalt qilish	93	71 865 000	71 865 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Obodonlashtirish boshqarmasi

16	1080400159	19 MTT kanalizatsiya tarmog'ini joriy ta'mirlash	90	70 000 000	70 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Maktabgacha ta'lim bo'limi
17	1080400039	Damariq mahallasi Tegirmonboshi ko'chasining 500 metr joyini asfaltlashtirish	89	291 050 000	291 050 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Obodonlashtirish boshqarmasi
18	1080400028	Nurafshon mahallasi Siplon ko'chasining 620 metr joyini asfaltlashtirish	82	437 500 000	437 500 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Obodonlashtirish boshqarmasi
19	1080400082	Workout sport maydonchasi qurish.	74	25 000 000	25 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Shahar hokimligi
20	1080400194	Oq Oltin MFY Iftixor ko'chasini asfalt qilish	70	117 000 000	117 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Obodonlashtirish boshqarmasi
21	1080400158	18-MTTni bolalar mebel jihozlari bilan ta'minlash	70	11 000 000	11 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Maktabgacha ta'lim bo'limi
22	1080400144	Yer Machit MFYda 1-tipdagi yoshlar kompleksini qurish	70	25 000 000	25 000 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Shahar hokimligi
23	1080400034	Chinobod MFY Ulug'bek Barnoyev o'tar ko'chasining 384 metr joyini asfaltlashtirish	58	237 226 000	204 988 000	fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Obodonlashtirish boshqarmasi
x	x	jami	x	4 163 647 000	4 131 409 000	x	x

Izoh: "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga shakllangan mablag' 4131409,0 ming so'mni tashkil qiladi. G'olib deb topilgan takliflar 4163647,0 ming so'mni tashkil etgan. G'olib deb topilgan takliflarni moliyalashtirish uchun 32238,0 ming so'm mablag' yetishmaydi. Chinobod MFY "Ulug'bek Barnoyev" o'tar ko'chasining 384 metr joyini asfalt qilish loyihasi uchun yetishmaydigan 32238,0 ming so'm mablag'ni

tashabbuslarni amalga oshirish jarayonida iqtisod qilingan mablagʻlar hisobidan qoplash koʻzda tutilmoqda.